

TALABALARDA AKADEMIK O'ZLASHTIRMASLIKNING GENDER XUSUSIYATLARI



<https://doi.org/10.24412/2181-1784-2026-20-275-277>

Mustafoyeva Farangiz Shuhrat qizi

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti magistranti

farangizmustafo213@gmail.com

ANNOTATSIYA

Ushbu maqola talabalarda akademik o'zlashtirmaslik muammosining psixologik jihatlarini gender nuqtayi nazaridan o'rganishga bag'ishlangan. Psixologiya sohasidagi ilmiy manbalar asosida motivatsiya, o'z-o'zini baholash va emotsional holatlarning erkak va ayol talabalar o'rtasidagi o'ziga xos jihatlari yoritilgan. Maqola xulosalari akademik muvaffaqiyatsizlik muammosini chuqurroq tushunishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: Akademik o'zlashtirmaslik, Motivatsiya, Emotsional holat, Gender farqlar, O'z-o'zini baholash

ABSTRACT

This article is devoted to examining the psychological aspects of academic underachievement among students from a gender perspective. Based on scientific literature in the field of psychology, the study highlights the distinctive features of motivation, self-esteem, and emotional states among male and female students. The conclusions of the article contribute to a deeper understanding of the problem of academic underachievement

Key words: Academic underachievement, motivation, emotional state, gender differences, self-assessment.

АННОТАЦИЯ

Данная статья посвящена изучению психологических аспектов академической неуспеваемости студентов с позиции гендерных различий. На основе научных источников в области психологии рассматриваются специфические особенности мотивации, самооценки и эмоционального состояния у студентов-мужчин и студентов-женщин. Выводы статьи способствуют более глубокому пониманию проблемы академической неуспеваемости.

Ключевые слова: Академическая несостоятельность, мотивация, самооценка, эмоциональное состояние, гендерные различия

Butun jahon ta'lim tizimida oliy ma'lumotli shaxsni tayyorlab voyaga yetkazish dolzarb masala bo'lib qolmoqda. Zamonaviy ta'lim tizimida barcha imkoniyatlarga ko'ra, shaxsni rivojlantirishga, ijtimoiylashtirishga va undagi mustaqil va tanqidiy fikrlash qobiliyatini takomillashtirish talab etilmoqda.

O'zbekiston oliy ta'lim tizimida gender tengligini ta'minlash va individual yondashuvga asoslangan o'qitish tizimlari bosqichma-bosqich yo'lga qo'yilmoqda. Genderlik xususiyatlarini inobatga olgan holda intellektni shakllantirish — bu zamonaviy ta'limning muhim strategik yo'nalishlaridan biridir. Bu yondashuv:

Har bir talabaning individual imkoniyatlarini ro'yobga chiqaradi,

Ta'lim jarayonining samaradorligini oshiradi,

Shaxsiy va kasbiy rivojlanishga zamin yaratadi

Akademik o'zlashtirmaslik — talabaning bilim va ko'nikmalarni yetarlicha o'zlashtira olmasligi, shuningdek, o'qishga bo'lgan ichki motivatsiyaning pasayishi bilan tavsiflanadi. Ushbu maqolada akademik o'zlashtirmaslikning psixologik omillari tahlil qilinadi va uni kamaytirish yo'llari ko'rib chiqiladi.

So'nggi tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, akademik o'zlashtirmaslikning namoyon bo'lishida gender omili muhim rol o'ynaydi. Erkak va ayol talabalar o'rtasidagi motivatsiya, o'z-o'zini baholash va emotsional barqarorlikdagi farqlar ta'lim jarayonida ularning akademik faoliyatini shakllantirishda sezilarli ahamiyatga ega. Shu sababli, mazkur maqola talabalarda akademik o'zlashtirmaslikning psixologik xususiyatlarini gender nuqtayi nazaridan tahlil qilishga bag'ishlangan.

Akademik o'zlashtirmaslik shaxsning o'quv faoliyatida barqaror past natijalarga erishishi bilan ifodalanib, u faqat bilim yetishmasligi bilan emas, balki murakkab psixologik omillar majmui bilan belgilanadi.

A.N.Leontyevning faoliyat nazariyasiga ko'ra, o'quv faoliyatining samaradorligi ichki motivatsiya va shaxsiy ma'noga bevosita bog'liq. Motivatsiyaning yetarli darajada shakllanmaganligi akademik faoliyatga nisbatan befarqlikni yuzaga keltirib, o'zlashtirmaslikka olib keladi. Shu bilan birga, B.G.Ananyev va L.S.Vygotskiylarning ishlari talabalarda individual-psixologik xususiyatlar, xususan, yosh va gender omillari o'quv faoliyatida muhim ahamiyatga ega ekanini ta'kidlaydi.

Talabalarda ichki va tashqi motivatsiya darajasining past bo'lishi o'quv jarayoniga befarqlikni kuchaytiradi. Bundan tashqari, kognitiv jarayonlar — diqqat, xotira, tafakkur va idrokning individual xususiyatlari ham o'zlashtirish darajasiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi.

Endi talabalarda akademik o'zlashtirmaslikning psixologik xususiyatlariga to'xtaladigan bo'lsak: Ayol talabalarda akademik muvaffaqiyatsizlik ko'pincha yuqori darajadagi tashvish, o'ziga nisbatan ishonchsizlik va emotsional beqarorlik bilan bog'liq bo'ladi. Ular o'z natijalarini haddan tashqari tanqidiy baholashga moyil bo'lib, kichik muvaffaqiyatsizliklarni ham jiddiy psixologik muammo sifatida qabul qilishlari mumkin.

Erkak talabalarda esa akademik o'zlashtirmaslik ko'proq o'quv motivatsiyasining pastligi, intizom yetishmasligi, o'quv faoliyatiga mas'uliyatsiz munosabat hamda tashqi faoliyatlarga (ish, ijtimoiy tarmoqlar, o'yinlar) haddan tashqari berilish bilan izohlanadi. Ular muvaffaqiyatsizlikni ko'pincha tashqi omillar bilan bog'lab, ichki sabablarni tan olishga kamroq moyil bo'ladilar.

O'z-o'zini baholash talabaning o'z akademik imkoniyatlarini qanday qabul qilishini belgilaydi. Past akademik o'z-o'zini baholash ko'pincha o'zlashtirmaslik, tashvish va passiv o'quv strategiyalari bilan bog'liq bo'ladi (Bandura, 1997).

Tadqiqotlar ayol talabalarda o'z-o'zini baholashning barqaror emasligi va o'z natijalariga nisbatan haddan tashqari tanqidiy munosabatni ko'rsatadi. Erkak talabalarda esa o'z-o'zini baholash ko'pincha real akademik ko'rsatkichlardan

yuqoriroq bo‘lishi mumkin, bu esa o‘quv jarayoniga yetarli e‘tibor qaratmaslikka olib keladi

So‘nggi yillarda olib borilgan ilmiy tadqiqotlar shuni ko‘rsatmoqdaki, genderlik xususiyatlarini hisobga olgan holda dars jarayonini tashkil etish o‘quv samaradorligini 20–30% gacha oshiradi. Bundan tashqari, bu yondashuv talabalarda: mustaqil fikrlash, liderlik ko‘nikmalari, ijodiy yondashuv, o‘zini anglashi kabi sifatlarning shakillanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Ushbu maqolada talabalarda akademik o‘zlashtirmaslik muammosining psixologik xususiyatlari gender nuqtayi nazaridan tahlil qilindi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, akademik o‘zlashtirmaslik faqat bilim darajasi bilan emas, balki shaxsning motivatsion sohasi, emotsional holati, o‘z-o‘zini baholashi, stressga chidamliligi hamda ijtimoiy-psixologik omillar bilan bevosita bog‘liqdir.

Gender jihatidan tahlil qilinganda, o‘g‘il va qiz talabalarda akademik qiyinchiliklarning namoyon bo‘lish shakllarida muayyan farqlar mavjudligi aniqlandi. Jumladan, o‘g‘il talabalarda o‘qishga nisbatan tashqi motivatsiyaning ustunligi, o‘z-o‘zini nazorat qilish darajasining pastligi va impulsivlik holatlari ko‘proq uchrashi mumkin. Qiz talabalarda esa emotsional beqarorlik, o‘ziga nisbatan talabchanlikning yuqoriligi, muvaffaqiyatsizlikdan qo‘rquv hamda xavotirlik darajasining ortishi akademik o‘zlashtirmaslikka sabab bo‘luvchi omillar sifatida namoyon bo‘ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Leontyev A.N. Faoliyat. Ong. Shaxs. – M.: Politizdat, 1977.
2. Vygotskiy L.S. Psixologiya rivojlanish muammolari. – M., 2005.
3. Ilyin E.P. Gender psixologiyasi. – SPb., 2010.
4. Bem S. Gender Schema Theory. – Psychological Review, 1981.